QMMB: 10/26/3854/0584-son
11.06.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3854
2026 - yil 10 - Iyun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 131-son “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3530, 2024-yil 12-iyul) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.07.2024-y., 10/24/3530/0506-son) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq 2027-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 6-may
362-son

KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

QMMB: 10/26/3854/0584-son
11.06.2026-y.

Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining
2026-yil 6-maydagi 362-son buyrugʻiga
ILOVA

Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning KONSEPTUAL ASOSLARI

Ushbu Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari (bundan buyon matnda Konseptual asos deb yuritiladi) mulkchilik shaklidan qatʼiy nazar Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar (bundan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar va budjet tashkilotlari mustasno) (bundan buyon matnda tashkilot deb yuritiladi) tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan moliyaviy hisobotning maqsadini ifodalaydi hamda moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

1-bob. Konseptual asosning maqsadi va maqomi

1. Mazkur Konseptual asosning maqsadi quyidagilarga yordam berishdan iborat:

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini tartibga soluvchi davlat organi Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga – izchil konsepsiyalarga asoslangan Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini (bundan buyon matnda MHMS deb yuritiladi) ishlab chiqish va qayta koʻrib chiqishda;

moliyaviy hisobotni tayyorlovchi shaxslarga – muayyan operatsiya yoki boshqa hodisaga nisbatan qoʻllanadigan standart mavjud boʻlmaganda yoki muayyan standartda hisob usullaridan birini hisob siyosatida tanlashga ruxsat berilgan taqdirda izchil hisob siyosatini ishlab chiqishda;

boshqa foydalanuvchilarga – MHMSni tushunish, sharhlash va tahlil qilishda.

2. Ushbu Konseptual asos MHMS hisoblanmaydi va undagi qoidalar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning alohida bir standartidan yoki standart talabidan ustuvor hisoblanmaydi.

3. Mazkur Konseptual asos va MHMS oʻrtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda MHMS talablari qoʻllaniladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi MHMSni ishlab chiqishda mazkur Konseptual asosdan foydalanadi hamda Konseptual asos bilan

MHMS oʻrtasida ziddiyatlar yuzaga kelsa, ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish choralarini koʻradi.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi MHMSni qoʻllash amaliyotidan kelib chiqib, ushbu Konseptual asosni qayta koʻrib chiqishi mumkin.

2-bob. Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotning maqsadi

5. Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobot mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlarga hisobot beruvchi tashkilot toʻgʻrisida mazkur tashkilotni resurslar bilan taʼminlash toʻgʻrisida qarorlar qabul qilishda foydali boʻladigan moliyaviy maʼlumotni taqdim etishga qaratilgan boʻladi.

6. Mazkur Konseptual asosning 5-bandida nazarda tutilgan maʼlumot quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

tashkilotning iqtisodiy resurslari, ushbu tashkilotga nisbatan talab qilish huquqlari hamda mazkur resurslar va talab qilish huquqlaridagi oʻzgarishlar;

tashkilot rahbariyati va boshqaruv organi tomonidan tashkilotning iqtisodiy resurslaridan foydalanish boʻyicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarning qay darajada oqilona va samarali bajarilganligi.

7. Moliyaviy hisobot iqtisodiy hodisalarni aks ettirishda koʻp hollarda baholashlar, mulohazalar va modellarga asoslanadi.

Konseptual asos bunday baholashlar, mulohazalar va modellar negizidagi tamoyillarni belgilaydi.

8. Quyidagilar mazkur Konseptual asosning asosiy jihatlari hisoblanadi:

moliyaviy hisobotning maqsadi;

moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari;

hisobot beruvchi tashkilot tushunchasi;

moliyaviy hisobotlarning elementlarini taʼriflash;

moliyaviy hisobotlarning elementlarini tan olish (bundan buyon matnda tan olish deb yuritiladi), baholash, hisobdan chiqarish, taqdim etish hamda maʼlumotlarni yoritib berish.

9. Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilotning iqtisodiy resurslari va ushbu tashkilotga nisbatan talab qilish huquqlari toʻgʻrisidagi maʼlumotdan iborat boʻlgan hisobot beruvchi tashkilotning moliyaviy holati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni taʼminlaydi.

Moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilotning iqtisodiy resurslari va ushbu tashkilotga nisbatan talab qilish huquqlarini oʻzgartiradigan operatsiyalar va boshqa hodisalarning taʼsirlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ham taʼminlaydi.

Mazkur bandning birinchi va ikkinchi xatboshilarida koʻrsatilgan ma'lumotlar foydalanuvchilar tomonidan tashkilotning kelgusi sof pul oqimlarining summasi, muddati va noaniqligi boʻyicha oʻz baholariga asoslangan holda qarorlar qabul qilish va kutilmalarni shakllantirishda foydalaniladi.

10. Moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilotning rahbariyati tomonidan ushbu tashkilotning iqtisodiy resurslaridan foydalanish boʻyicha oʻz mas'uliyati qay darajada oqilona va samarali bajarilganligini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida foydalanuvchilarga mazkur resurslarni masʼuliyatli boshqarish boʻyicha hisobot beruvchi tashkilotning rahbariyati faoliyatini baholashga yordam beradi.

3-bob. Foydali moliyaviy maʼlumotning sifat tavsiflari

11. Moliyaviy maʼlumot foydali boʻlishi uchun oʻrinli boʻlishi hamda oʻzi aks ettirishi lozim bo'lgan ma'lumotni haqqoniy (ishonchli) taqdim etishi lozim. Moliyaviy maʼlumotning qiyoslanuvchanligi, tekshiriluvchanligi, oʻz vaqtida taqdim etilganligi hamda tushunarliligi uning foydaliligini oshiradi.

12. Fundamental sifat tavsiflari oʻrinlilik va haqqoniy (ishonchli) taqdim etishdan iborat.

13. Qiyoslanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, oʻz vaqtida taqdim etish va tushunarlilik oʻrinli va haqqoniy (ishonchli) taqdim etishni taʼminlaydigan hamda maʼlumotning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari hisoblanadi.

Muayyan bir operatsiyani taqdim etishning ikki xil usuli mavjud boʻlsa hamda har ikki usul ham operatsiya boʻyicha maʼlumotni oʻrinli va haqqoniy (ishonchli) taqdim qilsa, maʼlumotning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari bunday operatsiyani ikki xil usuldan qay biri orqali aks ettirish lozimligini aniqlashga yordam beradi.

14. Maʼlumotning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari imkon qadar toʻliq qoʻllanilishi lozim.

Agar maʼlumot oʻrinli boʻlmasa yoki oʻzi aks ettirishi lozim bo'lgan ma'lumotni haqqoniy taqdim etmasa, maʼlumotning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari alohida yoki guruh sifatida maʼlumotni foydali qila olmaydi.

1-§. Oʻrinlilik

15. Oʻrinli moliyaviy maʼlumot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga taʼsir koʻrsata oladi.

Agar moliyaviy maʼlumot prognoz qiymati yoki tasdiqlash qiymati yoxud har ikkisiga ega boʻlsa, u qarorlarga ahamiyatli taʼsir koʻrsata oladi.

Agar foydalanuvchilar tomonidan moliyaviy maʼlumotdan kelgusi natijalarni prognoz qilish uchun foydalanish mumkin boʻlsa, u prognoz qiymatiga ega boʻladi.

Agar moliyaviy maʼlumot ilgari amalga oshirilgan baholashlar toʻgʻrisida mulohaza qilish (ularni tasdiqlash yoki oʻzgartirish) imkonini bersa, u tasdiqlash qiymatiga ega boʻladi.

16. Agar moliyaviy maʼlumotni tushirib qoldirish, notoʻgʻri koʻrsatish yoki yetarli darajada ochiqlamaslik (yashirish) umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarning asosiy foydalanuvchilari tomonidan muayyan hisobot beruvchi tashkilot toʻgʻrisidagi maʼlumot bilan taʼminlaydigan moliyaviy hisobot asosida qabul qilinadigan qarorlarga sezilarli tarzda taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlsa, bunday maʼlumot muhim hisoblanadi.

Bunda, muhimlik maʼlum bir tashkilotning hisoboti kontekstidagi maʼlumot taalluqli boʻlgan moddalarning tavsifi yoki qiymati yoxud har ikkisidan kelib chiqqan holda aniqlanadigan oʻrinlilikning tashkilotga xos boʻlgan jihati hisoblanadi.

2-§. Haqqoniy (ishonchli) taqdim etish

17. Moliyaviy maʼlumot foydali boʻlishi uchun oʻrinli iqtisodiy hodisalarni namoyon qilishdan tashqari oʻzi aks ettirishi lozim boʻlgan iqtisodiy hodisalarning mohiyatini toʻgʻri va haqqoniy (ishonchli) taqdim etishi lozim.

Iqtisodiy hodisaning mohiyati va uning huquqiy shakli bir xil boʻladi. Agar ular farq qilsa, faqat huquqiy shakli toʻgʻrisidagi maʼlumotni taqdim etish iqtisodiy hodisani haqqoniy (ishonchli) taqdim etmaydi.

18. Moliyaviy maʼlumotni haqqoniy (ishonchli) taqdim etishni taʼminlash maqsadida mazkur maʼlumot toʻliq, betaraf va xatolardan xoli tarzda aks ettirilishi lozim.

19. Toʻliq aks ettirish foydalanuvchining aks ettirilayotgan iqtisodiy hodisani, shu jumladan barcha izohlar (tushuntirishlar) va tavsiflarni tushunishi uchun zarur boʻlgan barcha maʼlumotni oʻz ichiga olish hisoblanadi.

20. Betaraf aks ettirish moliyaviy maʼlumotni tanlash yoki taqdim etishda noxolislik boʻlmasligini anglatadi.

Betaraflik ehtiyotkorlik (“prudence”) bilan mustahkamlanadi. Ehtiyotkorlik noaniq sharoitlarda mulohazalardan foydalanishda ehtiyotkor boʻlishdir.

Ehtiyotkorlikni qoʻllash aktivlar va daromadlarni oshirib koʻrsatmaslik hamda majburiyatlar va xarajatlarni kamaytirib koʻrsatmaslikni anglatadi. Ehtiyotkorlikni qoʻllash orqali aktivlar yoki daromadlarning kamaytirilishiga yoxud majburiyatlar yoki xarajatlarning oshirilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Bunda, mazkur bandning uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan notoʻgʻri aks ettirishlar kelgusi davrlarda daromadlar yoki xarajatlarning oshirib yoki kamaytirib koʻrsatilishiga olib kelishi mumkin.

21. Xatolardan xoli boʻlish iqtisodiy hodisaning tavsifida xatolar yoki maʼlumotning tushirib qoldirilishi mavjud emasligini hamda taqdim etilgan maʼlumotni olish uchun foydalanilgan jarayon xatosiz tanlangani va qoʻllanganini anglatadi.

3-§. Qiyoslanuvchanlik

22. Moliyaviy maʼlumot foydali va mazmunli boʻlishi uchun hisobot beruvchi tashkilotning bir hisobot davridagi maʼlumoti boshqa hisobot davridagi maʼlumoti bilan yoki boshqa tashkilotning shu kabi maʼlumoti bilan qiyoslanadigan boʻlishi kerak.

23. Qiyoslanuvchanlik foydalanuvchilarga moddalar oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlash hamda tushunish imkonini beradigan sifat tavsifi hisoblanadi.

Izchillik aynan bir xil moddalarga nisbatan bitta tashkilot doirasida turli davrlarda yoki turli tashkilotlarga nisbatan bir davrda aynan bir xil usullardan foydalanishni nazarda tutadi.

Bir xil iqtisodiy hodisaga muqobil hisobga olish usullari qoʻllangan taqdirda qiyoslanuvchanlik kamayadi.

4-§. Tekshiriluvchanlik

24. Tekshiriluvchanlik maʼlumot oʻzi aks ettirishi lozim boʻlgan iqtisodiy hodisani haqqoniy (ishonchli) taqdim etishiga foydalanuvchilarni ishontirishga yordam beradi.

Agar biror maʼlumotdan xabardor shaxslar hamda ushbu maʼlumot boʻyicha turli mustaqil kuzatuvchilar aniq kelishuvga kela olmasa, biroq ushbu maʼlumot tekshiriluvchan boʻlsa, ular maʼlumotning haqqoniy (ishonchli) ekanligi boʻyicha umumiy fikrga kela oladi.

Miqdoriy maʼlumot tekshiriluvchan boʻlishi uchun yagona mumkin boʻlgan hisob bahosini namoyon etishi shart emas. Mumkin boʻlgan qiymatlar koʻlami va ular bilan bogʻliq ehtimolliklar ham tekshiriluvchan boʻlishi mumkin.

5-§. Oʻz vaqtida taqdim etish

25. Oʻz vaqtida taqdim etish qaror qabul qiluvchi shaxslar ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga taʼsir koʻrsatish imkoniyati mavjud boʻlgan paytda maʼlumotga ega boʻlishini anglatadi.

Maʼlumotning foydaliligi, qoida tariqasida, uning muddati oʻtgan sari kamayib boradi. Ayrim maʼlumotlar muayyan foydalanuvchilar uchun trendlarni aniqlash va baholash maqsadida hisobot davri yakunlangandan keyin ham uzoq vaqt davomida oʻz vaqtida taqdim etilgan deb hisoblanishi mumkin.

6-§. Tushunarlilik

26. Maʼlumotlar tushunarli boʻlishi uchun ular tasniflangan, tizimlashtirilgan hamda aniq va qisqa taqdim etilishi lozim.

4-bob. Moliyaviy hisobotlar va hisobot beruvchi tashkilot

1-§. Moliyaviy hisobotlarning maqsadi va tarkibi

27. Moliyaviy hisobotlarning maqsadi hisobot beruvchi tashkilotning iqtisodiy resurslarini masʼuliyatli boshqarish boʻyicha ushbu tashkilot rahbariyatining faoliyatini hamda hisobot beruvchi tashkilotning kelgusidagi sof pul mablagʻlari kirimining ehtimolini baholashda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun foydali boʻladigan hisobot beruvchi tashkilotning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlari toʻgʻrisidagi moliyaviy maʼlumotni taqdim etishdan iborat.

28. Mazkur Konseptual asosning 27-bandida nazarda tutilgan maʼlumotlar quyidagilar orqali taqdim etiladi:

a) aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital tan olinadigan moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot;

b) daromadlar va xarajatlar tan olinadigan moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar);

d) quyidagilar toʻgʻrisidagi maʼlumot taqdim etiladigan va yoritib beriladigan hisobotlar va izohlarda:

tan olingan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar, shu jumladan ularning tavsifi va ushbu tan olingan aktivlar va majburiyatlar asosida yuzaga keladigan risklar;

tan olinmagan aktivlar va majburiyatlar, shu jumladan ularning tavsifi va ular asosida yuzaga keladigan risklar;

pul oqimlari;

tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari va ushbu shaxslarga taqsimotlar;

taqdim etilgan yoki yoritib berilgan summalarni baholashda foydalanilgan usullar, farazlar va mulohazalar, shuningdek ushbu usullar, farazlar va mulohazalardagi oʻzgarishlar.

29. Moliyaviy hisobotlar mavjud yoki potensial investorlar, qarz beruvchilar yoxud boshqa kreditorlarning nuqtayi nazaridan emas, umumiy holatdagi hisobot beruvchi tashkilotning nuqtayi nazaridan koʻrib chiqiladigan operatsiyalar va boshqa hodisalar toʻgʻrisidagi maʼlumotni taqdim etadi.

2-§. Hisobot davri

30. Moliyaviy hisobotlar muayyan vaqt davriga (hisobot davriga) nisbatan tayyorlanadi va quyidagilar toʻgʻrisidagi maʼlumotni taqdim etadi:

hisobot davrining oxirgi sanasida yoki hisobot davri mobaynida mavjud boʻlgan aktivlar va majburiyatlar, shu jumladan, tan olinmagan aktivlar va majburiyatlar hamda xususiy kapital toʻgʻrisida;

hisobot davri uchun daromadlar va xarajatlar toʻgʻrisida.

31. Moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga ulardagi oʻzgarishlar va trendlarni aniqlash va baholashga yordam berish maqsadida kamida bitta oldingi davr uchun qiyosiy maʼlumotni taqdim etadi, bundan MHMSni birinchi marta qoʻllash uchun boshqacha tartib talab etilgan yoki ruxsat berilgan holatlar mustasno.

32. Kelgusi operatsiyalar va boshqa kelgusi hodisalar toʻgʻrisidagi maʼlumot (prognoz maʼlumot) quyidagi shartlar asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi:

hisobot beruvchi tashkilotning hisobot davri oxiridagi yoki hisobot davri mobaynidagi aktivlari va majburiyatlari, shu jumladan, tan olinmagan aktiv va majburiyatlari yoki hisobot davriga oid daromadlari va xarajatlari, shuningdek xususiy kapitaliga doir maʼlumotga tegishli boʻlsa;

moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun foydali boʻlsa.

Moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilot rahbariyatining ushbu tashkilotga nisbatan kutilmalari va strategiyasi toʻgʻrisidagi tushuntirish materiallari kabi boshqa turdagi prognoz maʼlumotlarni oʻz ichiga olmaydi.

3-§. Faoliyatning uzluksizligi farazi

33. Moliyaviy hisobotlar, qoida tariqasida, hisobot beruvchi tashkilot oʻz faoliyatini uzluksiz amalga oshirishi va yaqin kelajakda uni amalga oshirishda davom ettirishi toʻgʻrisidagi faraz asosida tayyorlanadi. Bunda, hisobot beruvchi tashkilotning oʻz faoliyatini tugatish yoki oʻzining tadbirkorlik faoliyatini toʻxtatish niyati va zarurati mavjud emasligi faraz qilinadi.

Agarda tashkilotning oʻz faoliyatini tugatish yoki oʻzining tadbirkorlik faoliyatini toʻxtatish niyati yoki zarurati mavjud boʻlsa, moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi farazidan boshqa asosda tayyorlash talab qilinishi mumkin. Bunda, moliyaviy hisobotlarda foydalanilgan asos tavsiflanadi.

4-§. Hisobot beruvchi tashkilot

34. Hisobot beruvchi tashkilot – bu moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi shart boʻlgan yoki uni tayyorlash toʻgʻrisida mustaqil qaror qabul qiladigan tashkilot. Hisobot beruvchi tashkilot bitta tashkilotni yoki bir nechta tashkilotlarni oʻz ichiga olishi mumkin.

35. Bitta tashkilot (bosh tashkilot) boshqa tashkilot (shuʼba tashkilot) ustidan nazoratga ega boʻlishi mumkin. Agar hisobot beruvchi tashkilot bosh tashkilotni hamda uning shuʼba tashkilotini oʻz ichiga olsa, ushbu hisobot beruvchi tashkilotning moliyaviy hisobotlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot boʻladi.

Agar hisobot beruvchi tashkilot faqat bosh tashkilotning oʻzidan iborat boʻlsa, ushbu hisobot beruvchi tashkilotning moliyaviy hisobotlari konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobot boʻladi.

36. Agar hisobot beruvchi tashkilot “bosh tashkilot-shuʼba tashkilot” munosabatlari bilan bogʻlanmagan ikki yoki undan ortiq tashkilotlarni oʻz ichiga olsa, hisobot beruvchi tashkilotning ushbu moliyaviy hisobotlari kombinatsiyalashgan moliyaviy hisobot boʻladi.

5-§. Konsolidatsiyalashgan va konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobotlar

37. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar yagona hisobot beruvchi tashkilot sifatida bosh tashkilot va uning shuʼba tashkilotlarining aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlari toʻgʻrisida maʼlumotni taqdim etadi. Mazkur maʼlumot bosh tashkilotning mavjud va potensial investorlari, qarz beruvchilari va boshqa kreditorlari uchun bosh tashkilotga kelgusidagi sof pul mablagʻlari kirimining ehtimolini baholashda foydali hisoblanadi.

38. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar muayyan shuʼba tashkilotning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlari toʻgʻrisida alohida maʼlumot taqdim etish uchun moʻljallanmagan. Shuʼba tashkilotning moliyaviy hisobotlari bunday maʼlumotni taʼminlaydi.

39. Bosh tashkilotning konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobotlari faqat bosh tashkilotning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlari toʻgʻrisida maʼlumot taqdim etish uchun moʻljallangan.

40. Konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobotlarda taqdim etiladigan maʼlumot, qoida tariqasida, bosh tashkilotning mavjud va potensial investorlari, qarz beruvchilari va boshqa kreditorlarining maʼlumotga boʻlgan ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun yetarli boʻlmaydi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish talab etiladigan hollarda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning oʻrnini bosa olmaydi.

Bosh tashkilotdan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarga qoʻshimcha ravishda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash talab etilishi yoki bosh tashkilot ularni oʻz ixtiyoriga koʻra tayyorlashi mumkin.

5-bob. Moliyaviy hisobotlarning elementlari

41. Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xoʻjalik operatsiyalarini “moliyaviy hisobotlarning elementlari” deb nomlanuvchi iqtisodiy tavsiflarga muvofiq alohida moddalarga guruhlab aks ettiradi.

Aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital hisobot beruvchi tashkilotning moliyaviy holatini aniqlash bilan bogʻliq elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar hisobot beruvchi tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash bilan bogʻliq elementlar hisoblanadi.

1-§. Aktivlar

42. Aktivlar – tashkilot tomonidan oldingi hodisalar natijasida nazorat qilinadigan mavjud iqtisodiy resurs. Iqtisodiy resurs bu iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega boʻlgan huquq hisoblanadi.

43. Iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega huquqlar turli shakllarga ega boʻlishi mumkin, shu jumladan:

a) tashkilotga nisbatan boshqa tomonning majburiyatiga muvofiq keladigan huquqlar. Bunga quyidagilar misol boʻlishi mumkin:

pul mablagʻlarini olish huquqlari;

tovarlar yoki xizmatlarni olish huquqlari;

iqtisodiy resurslarni boshqa tomon bilan manfaatli shartlarda ayirboshlash huquqlari;

boshqa tomonning iqtisodiy resursni oʻtkazish majburiyatidan kelib chiqadigan muayyan kelgusi hodisa roʻy bergan taqdirda olinadigan nafga boʻlgan huquqlar;

b) tashkilotga nisbatan boshqa tomonning majburiyatiga muvofiq kelmaydigan huquqlar. Bunga quyidagilar misol boʻlishi mumkin:

asosiy vositalarning obyektlari yoki zaxiralar kabi jismoniy obyektlarga boʻlgan huquqlar;

intellektual mulkdan foydalanish huquqi.

44. Iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega aksariyat huquqlar shartnoma shartlari, qonunchilik talablari yoki shularga oʻxshash vositalar orqali yuzaga keladi. Masalan, tashkilot jismoniy obyektga egalik qilish yoki uni ijaraga olish, qarz instrumenti yoki ulushli instrumentga egalik qilish yoxud roʻyxatdan oʻtkazilgan patentga egalik qilish orqali iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega huquqlarga ega boʻlishi mumkin.

Tashkilot quyidagi usullar orqali ham iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega huquqlarga ega boʻlishi mumkin:

omma uchun ochiq boʻlmagan nou-xauni sotib olish yoki yaratish;

hisobot beruvchi tashkilotga nisbatan boshqa tomonning odatiy amaliyoti, eʼlon qilingan siyosati yoki aniq bayonotlariga zid ravishda harakat qilish uchun amaliy imkoniyat mavjud boʻlmagan holatda boshqa tomonda yuzaga keladigan majburiyat.

45. Ayrim tovarlar yoki xizmatlar bir paytda olinadi va isteʼmol qilinadi. Bunda, tashkilotning bunday tovarlar yoki xizmatlar bilan bogʻliq iqtisodiy naflarni olishga boʻlgan huquqi tashkilot tomonidan ushbu tovarlar yoki xizmatlarni isteʼmol qilish paytiga qadar qisqa muddat mobaynida mavjud boʻladi.

46. Tashkilotning iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega barcha huquqlari ham ushbu tashkilotning aktivlari hisoblanmaydi. Bunday huquqlar tashkilotning aktivlari hisoblanishi uchun quyidagi ikkita shartga javob berishi lozim:

huquqlar barcha boshqa tomonlar uchun mavjud iqtisodiy naflar keltirishidan tashqari tashkilot uchun iqtisodiy naflar keltirish potensialiga ega boʻlishi lozim;

tashkilot tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Ahamiyatli sarflarsiz barcha tomonlar foydalanishi uchun mavjud iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega huquqlar (masalan, hamma foydalanishi mumkin boʻlgan yoʻl yoki nou-xaudan foydalanish huquqi) ularga ega boʻlgan tashkilot uchun aktivlar hisoblanmaydi.

47. Iqtisodiy resurs tashkilotga huquqlar berish yoki quyidagi harakatlardan bittasi yoki bir nechtasini amalga oshirish imkoniyatini taʼminlash hisobiga tashkilot uchun iqtisodiy naflar yaratishi mumkin:

a) shartnomaviy pul oqimlarini yoki boshqa iqtisodiy resursni olish;

b) hisobot beruvchi tashkilotga nisbatan boshqa tomon bilan foydali shartlarda iqtisodiy resurslarni ayirboshlash;

d) quyidagilar orqali pul mablagʻlarining kirimini taʼminlash yoki pul mablagʻlarining chiqimini oldini olish:

mazkur iqtisodiy resursdan alohida tarzda yoki boshqa iqtisodiy resurslar bilan birgalikda tovarlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar koʻrsatish uchun foydalanish;

mazkur iqtisodiy resursdan boshqa iqtisodiy resurslar qiymatini oshirish uchun foydalanish;

mazkur iqtisodiy resursni boshqa tomonga ijaraga berish;

e) mazkur iqtisodiy resursni sotish natijasida pul mablagʻlarini yoki boshqa iqtisodiy resurslarni olish;

f) mazkur iqtisodiy resursni oʻtkazish yoʻli bilan majburiyatni soʻndirish.

48. Mazkur Konseptual asosning 46-bandi uchinchi xatboshisiga muvofiq nazorat iqtisodiy resursni tashkilot bilan bogʻlaydi.

Nazoratning mavjudligini baholash tashkilot tomonidan hisobga olinishi lozim boʻlgan iqtisodiy resursni identifikatsiyalashga yordam beradi.

49. Agar tashkilot iqtisodiy resursdan foydalanish usulini boshqarish va iqtisodiy resurs keltirishi mumkin boʻlgan iqtisodiy naflarni olish boʻyicha joriy imkoniyatga ega boʻlsa, tashkilot iqtisodiy resursni nazorat qiladi.

Nazorat tashkilotga nisbatan boshqa tomonlarning iqtisodiy resursdan foydalanish usulini boshqarishi va ushbu iqtisodiy resursdan iqtisodiy naflar olishiga toʻsqinlik qilish boʻyicha joriy imkoniyatni oʻz ichiga oladi. Agar bir

tomon iqtisodiy resursni nazorat qilsa, hech qanday boshqa tomon uni nazorat qilmaydi.

50. Agar tashkilot iqtisodiy resursdan oʻz faoliyatida foydalanish yoki boshqa tomonga iqtisodiy resursdan oʻz faoliyatida foydalanishga ruxsat berish huquqiga ega boʻlsa, tashkilot iqtisodiy resursdan foydalanish usulini boshqarish boʻyicha joriy imkoniyatga ega boʻladi.

2-§. Majburiyatlar

51. Majburiyatlar – tashkilotning oldingi hodisalar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy resursni oʻtkazish boʻyicha mavjud javobgarligi.

52. Majburiyat mavjud boʻlishi uchun quyidagi uchta mezonlarning barchasi bajarilishi lozim:

tashkilotda javobgarlik mavjud boʻlishi;

mazkur javobgarlik iqtisodiy resursni oʻtkazishdan iborat boʻlishi;

mazkur javobgarlik oldingi hodisalar natijasida yuzaga kelgan boʻlishi.

53. Javobgarlik tashkilot uni oldini olishga amaliy imkoniyati boʻlmagan burch (masʼuliyat) hisoblanadi hamda har doim boshqa tomon(lar) oldida yuzaga keladi. Bunda, boshqa tomon(lar) jismoniy shaxs, tashkilot, jismoniy shaxslar (tashkilotlar) guruhi yoki jamiyat boʻlishi mumkin.

Javobgarlik qaysi tomon(lar)ning oldida yuzaga kelganligini aniq bilish talab etilmaydi.

54. Aksariyat javobgarliklar shartnoma, qonunchilik talablari yoki shularga oʻxshash vositalarning mavjudligi tufayli yuzaga keladi hamda tashkilotning javobgarligi boʻyicha manfaatdor tomon(lar) yuridik jihatdan himoyalangan hisoblanadi.

Agar tashkilotda shakllangan doimiy amaliyot, eʼlon qilingan siyosat yoki aniq bayonotlarga nomuvofiq harakat qilishning amaliy imkoniyati mavjud boʻlmasa, tashkilotning bunday doimiy amaliyoti, eʼlon qilingan siyosati yoki aniq bayonotlari tufayli ham javobgarliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda yuzaga keladigan javobgarlik konstruktiv javobgarlik hisoblanishi mumkin.

55. Iqtisodiy resursni oʻtkazish javobgarligi mezoniga javob berish uchun javobgarlik tashkilotdan iqtisodiy resursni boshqa tomon(lar)ga oʻtkazishni talab qilish potensialiga ega boʻlishi lozim. Bunday potensial mavjud boʻlishi uchun tashkilotdan iqtisodiy resursni oʻtkazish talab etilishi aniq yoki yuqori ehtimolli boʻlishi shart emas.

Iqtisodiy resursni o‘tkazish faqat kelgusida yuz berishi noaniq bo‘lgan muayyan hodisa sodir bo‘lgan taqdirda talab etilishi mumkin.

56. Iqtisodiy resursni oʻtkazish javobgarliklariga quyidagilar misol boʻladi:

pul mablagʻlarini toʻlash;

tovarlarni oʻtkazish yoki xizmatlar koʻrsatish;

iqtisodiy resurslarni boshqa tomon bilan foydali boʻlmagan shartlarda ayirboshlash;

iqtisodiy resursni muayyan noaniq kelgusi hodisa roʻy bergan taqdirda oʻtkazish;

agar moliyaviy instrument tashkilotga iqtisodiy resursni oʻtkazish majburiyatini yuklasa, bunday moliyaviy instrumentni chiqarish.

57. Iqtisodiy resursni uni olish huquqiga ega boʻlgan tomonga oʻtkazish javobgarligini bajarish oʻrniga tashkilot quyidagi qaror(lar)ni qabul qilishi mumkin:

javobgarlikni undan ozod qilish toʻgʻrisida muzokaralar olib borish yoʻli bilan soʻndirish;

javobgarlikni uchinchi tomonga oʻtkazish;

iqtisodiy resursni oʻtkazish boʻyicha javobgarlikni yangi bitim tuzish yoʻli bilan boshqa javobgarlikka almashtirish.

58. Agar tashkilot tomonidan iqtisodiy naflar olinganligi yoki boshqa harakat amalga oshirilganligi natijasida tashkilot iqtisodiy resursni oʻtkazsa yoki oʻtkazishiga toʻgʻri kelsa, mavjud javobgarlik oldingi hodisalar natijasida yuzaga kelgan hisoblanadi.

59. Olingan iqtisodiy naflarga tovarlar yoki xizmatlarni kiritish mumkin. Bajarilgan harakat tadbirkorlik faoliyatining muayyan turini amalga oshirish yoki muayyan bozorda operatsiyalarni amalga oshirishni oʻz ichiga olishi mumkin.

Agar iqtisodiy naflarni olish yoki harakatlarni bajarish muayyan vaqt mobaynida roʻy bersa, mavjud javobgarlik ushbu vaqt davomida shakllanishi (jamgʻarilishi) mumkin.

3-§. Aktiv va majburiyatga nisbatan hisob birligi hamda ijro etiladigan shartnoma

60. Hisob birligi tan olish mezonlari va baholash tamoyillari qoʻllanadigan huquq yoki huquqlar guruhi, javobgarlik yoki javobgarliklar guruhi yoxud huquqlar va javobgarliklar guruhidir.

61. Aktiv yoki majburiyatga nisbatan hisob birligini tanlash ushbu aktiv yoki majburiyatga hamda ularga bogʻliq daromadlar va xarajatlarga nisbatan tan olish mezonlari va baholash tamoyillari qay tarzda qoʻllanishini koʻrib chiqishda amalga oshiriladi.

Tan olish maqsadlarida bir hisob birligini va baholash maqsadlarida boshqa hisob birligini tanlash ham maqsadga muvofiq boʻlishi mumkin.

62. Ijro etiladigan shartnoma tomonlarning hech biri shartnomada belgilangan javobgarliklarni bajarmagan yoki ikkala tomon ham oʻz javobgarliklarini teng tarzda qisman bajargan shartnoma yoki shartnomaning bir qismi hisoblanadi.

63. Ijro etiladigan shartnoma iqtisodiy resurslarni ayirboshlash boʻyicha jamlangan huquq va javobgarlikni belgilaydi. Ushbu jamlangan huquq va javobgarlik yagona aktiv yoki majburiyatni tashkil etadi.

Bunda, ayirboshlash shartlari hozirgi vaqtda foydali hisoblansa, tashkilot aktivga ega, ayirboshlash shartlari hozirgi vaqtda foydali hisoblanmasa, tashkilot majburiyatga ega boʻladi. Bunday aktiv yoki majburiyatni moliyaviy hisobotlarga kiritish mazkur aktiv yoki majburiyat uchun tanlangan tan olish mezonlari va baholash asoslariga, shu jumladan, agar qoʻllash mumkin boʻlsa, shartnomaning zarar keltiruvchanligini tekshirishga bogʻliq.

4-§. Xususiy kapital

64. Xususiy kapital tashkilotning barcha majburiyatlari chegirilgandan keyin uning aktivlaridagi qoldiq ulush hisoblanadi.

65. Tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari tashkilotning barcha majburiyatlari chegirilgandan keyin uning aktivlaridagi qoldiq ulushga nisbatan talab qilish huquqlaridir.

Tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari majburiyat taʼrifiga javob bermaydigan tashkilotga nisbatan talab qilish huquqlaridir. Bunday talab qilish huquqlari shartnoma, qonunchilik talablari yoki shularga oʻxshash vositalar asosida yuzaga kelishi mumkin hamda majburiyat taʼrifiga javob bermaydigan darajada quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

tashkilot tomonidan chiqarilgan turli xil aksiyalar;

tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan boshqa talab qilish huquqini chiqarish boʻyicha ayrim javobgarliklari.

66. Tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlarining turli sinflari (oddiy aksiya, imtiyozli aksiya va boshqalar) ularning egalariga turli

huquqlarni, shu jumladan tashkilotdan quyidagilarning barchasi yoki bir qismini olish huquqini taqdim etishi mumkin:

dividendlar, agar tashkilot muayyan shartlarga javob beradigan egalarga dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilsa;

tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlarini realizatsiya qilishdan tashkilot tugatilganda to‘liq miqdorda yoxud boshqa hodisalar munosabati bilan qisman pul mablag‘lari kirimi;

tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan boshqa talab qilish huquqlari.

5-§. Daromadlar va xarajatlar

67. Daromadlar xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan tarzda xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishidir.

68. Xarajatlar xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimotlar bilan bog‘liq bo‘lmagan tarzda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishidir.

69. Mazkur Konseptual asosning 67 va 68-bandlarida keltirilgan daromadlar va xarajatlarning ta’riflariga asosan xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari daromadlar hamda xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimotlar xarajatlar hisoblanmaydi.

70. Daromadlar va xarajatlar tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalari bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy hisobotlar elementlari hisoblanadi.

71. Turli operatsiyalar va boshqa hodisalar turli tavsiflarga ega daromadlar va xarajatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bunda, turli tavsiflarga ega daromadlar va xarajatlar to‘g‘risida ma’lumotni alohida taqdim etish moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalarini tushunishga yordam beradi.

6-bob. Moliyaviy hisobotlar elementlarini tan olish va hisobdan chiqarish

1-§. Tan olish jarayoni va mezonlari

72. Tan olish moliyaviy hisobotlar elementlaridan birining (aktiv, majburiyat, xususiy kapital, daromadlar yoki xarajatlar) ta’rifini qanoatlantiradigan moddani

moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot yoki moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)ga kiritish uchun identifikatsiyalash jarayonidir.

Tan olish moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot yoki moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)dan birida moddani alohida yoki boshqa moddalar bilan birga soʻz bilan taʼriflash va pul summasi orqali aks ettirishni, shuningdek pul summasini mazkur hisobotning bir yoki bir nechta yakuniy koʻrsatkichlariga kiritishni nazarda tutadi.

Moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda aktiv, majburiyat yoki xususiy kapitalning tan olinadigan qiymati “balans qiymati” deb ataladi.

73. Moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot yoki moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar) tashkilotning tan olingan aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlarini moliyaviy maʼlumotning qiyoslanuvchan va tushunarli boʻlishiga qaratilgan tuzilmaviy umumlashtiruvchi shakllar yordamida aks ettiradi. Bunday umumlashtiruvchi shakllar tuzilmasining muhim xususiyati hisobotda tan olingan summalarning yakuniy koʻrsatkichlarga kiritilishi hamda qoʻllash mumkin boʻlgan hollarda ushbu hisobotda tan olingan moddalarning oʻzaro bogʻlovchi oraliq yakuniy koʻrsatkichlarga kiritilishi hisoblanadi.

74. Tan olish moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot va moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar) elementlari oʻrtasida bogʻlanishni quyidagi tarzda taʼminlaydi:

moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda hisobot davri boshida va oxirida aktivlarning umumiy qiymati majburiyatlarning umumiy qiymati chegirib tashlangan holda xususiy kapitalning umumiy qiymatiga teng boʻladi;

hisobot davri uchun xususiy kapitaldagi tan olingan oʻzgarishlar moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)da tan olingan xarajatlar chegirilgan daromadlar hamda xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalari foydasiga taqsimotlarni chegirgan holda xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalari amalga oshirgan badallarni oʻz ichiga oladi.

75. Bir modda yoki uning balans qiymatidagi oʻzgarishni tan olish bir yoki bir nechta boshqa moddalarni yoxud ularning balans qiymatlaridagi oʻzgarishlarni tan olish yoki hisobdan chiqarishni talab qilganligi sababli moliyaviy hisobotlar oʻzaro bogʻliq hisoblanadi.

Daromadlarni tan olish quyidagilardan biri bilan bir vaqtda amalga oshiriladi:

aktivni dastlabki tan olish yoki aktivning balans qiymatining oshishi;

majburiyatni hisobdan chiqarish yoki majburiyatning balans qiymatining kamayishi.

Xarajatlarni tan olish quyidagilardan biri bilan bir vaqtda amalga oshiriladi:

majburiyatni dastlabki tan olish yoki majburiyatning balans qiymatining oshishi;

aktivni hisobdan chiqarish yoki aktivning balans qiymatining kamayishi.

76. Moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda faqat aktiv, majburiyat yoki xususiy kapital taʼrifiga javob beradigan moddalar tan olinadi.

Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)da faqat daromadlar yoki xarajatlar taʼrifiga javob beradigan moddalar tan olinadi.

Bunda, mazkur bandning birinchi va ikkinchi xatboshilarida nazarda tutilgan elementlardan birining ta’rifiga javob beradigan modda tan olinmasligi mumkin.

77. Tan olish mezonlariga javob beradigan moddani tan olmaslik bo‘yicha xatolikni amaldagi hisob siyosatini yoritib berish yoki izohlar yoxud tushuntirish maʼlumotlari orqali tuzatib boʻlmaydi.

78. Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar toʻgʻrisidagi maʼlumot moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun, qoida tariqasida, oʻrinli hisoblanadi.

Muayyan aktiv yoki majburiyatni tan olish hamda buning natijasida yuzaga keladigan daromadlar, xarajatlar yoki xususiy kapitaldagi oʻzgarishlarni tan olish oʻrinli maʼlumotni taʼminlamasligi mumkin. Bunday vaziyat aktiv yoki majburiyatning mavjudligi noaniq boʻlganda yoxud aktiv yoki majburiyat mavjud bo‘lgan holda iqtisodiy naflar kelishi yoki chiqib ketishi ehtimolligi past boʻlganda yuz berishi mumkin.

Bunda, tan olish natijasida taqdim etiladigan maʼlumot oʻrinliligi to‘g‘risidagi xulosaga boshqa omillar ham ta’sir qilishi mumkinligi sababli mazkur bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan omillardan birining yoki har ikkisining mavjudligi bunday ma’lumot o‘rinli emas degan xulosaga avtomatik ravishda olib kelmaydi.

79. Ayrim hollarda aktiv yoki majburiyatning mavjudligi noaniq boʻlishi mumkin. Iqtisodiy naflarning kirib kelishi yoki chiqib ketishi ehtimolining pastligi hamda ehtimoliy natijalar ko‘lamining nihoyatda kengligi bilan birga kuzatilishi mumkin bo‘lgan bunday noaniqlik muayyan aktiv yoki majburiyatni tan olish o‘rinli ma’lumotni taqdim etmasligini anglatishi mumkin.

Tashkilot aktiv yoki majburiyatni tan olgan yoki tan olmagan bo‘lishidan qat’i nazar moliyaviy hisobotlarda ushbu aktiv yoki majburiyat bilan bog‘liq noaniqliklar to‘g‘risida tushuntirish ma’lumotlarini taqdim etishi zarur boʻlishi mumkin.

80. Agar muayyan aktiv yoki majburiyatni tan olish oʻrinli maʼlumotni taqdim etishdan tashqari bunday aktiv yoki majburiyat hamda ularning natijasida

yuzaga keladigan daromadlar, xarajatlar yoki xususiy kapital oʻzgarishining haqqoniy (ishonchli) taqdim etilishini taʼminlasa, bunday aktiv yoki majburiyatni tan olish oʻrinli hisoblanadi. Haqqoniy (ishonchli) taqdim etilishini taʼminlash toʻgʻrisidagi masala mazkur aktiv yoki majburiyat bilan bogʻliq baholash noaniqliklarining darajasi yoki boshqa omillarga bogʻliq boʻlishi mumkin.

81. Aktiv yoki majburiyatni tan olish uchun uning qiymatini baholash lozim. Baholashlar koʻp hollarda taxminiy hisoblashlarga asoslanadi hamda shu sababli baholash noaniqligiga ega boʻladi.

Asoslangan hisob baholaridan foydalanish moliyaviy ma’lumotni tayyorlashning muhim qismi hisoblanadi hamda agar bunday hisob baholari aniq va toʻgʻri tavsiflansa hamda tushuntirilsa, ma’lumotning foydaliligiga salbiy taʼsir koʻrsatmaydi.

82. Tan olish mezonlariga javob bermaydigan modda keyinchalik yuzaga kelgan holatlar yoki hodisalar natijasida tan olish mezonlariga javob berishi mumkin.

83. Aktiv yoki majburiyatning tan olinishi yoki olinmasligidan qatʼi nazar ularni haqqoniy (ishonchli) taqdim etish mazkur aktiv yoki majburiyatning mavjudligi yoki bahosi yoxud ushbu aktiv yoki majburiyat bilan bogʻliq yakuniy natija (ushbu aktiv yoki majburiyat boʻyicha yuzaga keladigan iqtisodiy naflarning kirimi yoki chiqimi summasi yoxud muddatlari) bilan bogʻliq noaniqliklar toʻgʻrisidagi tushuntirish ma’lumotlarining kiritilishini talab qilishi mumkin.

2-§. Moliyaviy hisobotlarning elementlarini hisobdan chiqarish

84. Moliyaviy hisobotlarning elementlarini hisobdan chiqarish (bundan buyon matnda hisobdan chiqarish deb yuritiladi) ilgari tan olingan aktiv yoki majburiyatni toʻliq yoki qisman tashkilotning moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotidan chiqarishdir.

Hisobdan chiqarish, qoida tariqasida, moliyaviy hisobotlarning elementi aktiv yoki majburiyatning taʼrifiga ortiq javob bermagan paytda roʻy beradi. Bunda:

aktivlarga nisbatan hisobdan chiqarish, qoida tariqasida, tashkilot ilgari tan olingan aktiv boʻyicha toʻliq yoki qisman nazoratni yoʻqotgan paytda roʻy beradi;

majburiyatlarga nisbatan hisobdan chiqarish, qoida tariqasida, tashkilotda ilgari tan olingan majburiyat boʻyicha toʻliq yoki qisman javobgarlik ortiq mavjud boʻlmagan paytda roʻy beradi.

85. Hisobdan chiqarishni aks ettirishga talablar quyidagi ikkita jihatni haqqoniy (ishonchli) taqdim etishga qaratiladi:

hisobdan chiqarishga olib kelgan operatsiya yoki boshqa hodisadan keyin saqlanib qolgan aktivlar va majburiyatlar (shu jumladan, mazkur operatsiya yoki boshqa hodisa doirasida xarid qilingan, qabul qilingan yoki yaratilgan aktivlar yoki majburiyatlar);

operatsiya yoki boshqa hodisa natijasida tashkilotning aktivlari va majburiyatlaridagi oʻzgarishlar.

86. Quyidagilar orqali moliyaviy hisobotlarning elementlari hisobdan chiqariladi:

amal qilish muddati oʻtgan yoki isteʼmol qilingan, olingan, bajarilgan yoki oʻtkazilgan aktivlar yoki majburiyatlarni hisobdan chiqarish, shuningdek hisobdan chiqarish natijasida yuzaga keladigan daromadlar yoki xarajatlarni tan olish;

saqlanib qolgan aktivlar yoki majburiyatlarni tan olishni davom ettirish.

87. Oʻtkazilgan komponentni hisobdan chiqarish natijasida saqlangan komponentga nisbatan hech qanday daromadlar yoki xarajatlar tan olinmaydi, bundan hisobdan chiqarish saqlangan komponentga nisbatan qoʻllanadigan baholash talablaridagi oʻzgarishga olib keladigan hollar mustasno. Bunda, quyidagi bir yoki bir nechta tartiblar qoʻllanilishi mumkin:

moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda har qanday saqlangan komponentni alohida taqdim etish;

moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)da oʻtkazilgan komponentni hisobdan chiqarish natijasida tan olingan har qanday daromadlar va xarajatlarni alohida taqdim etish;

tushuntirish maʼlumotlarini taqdim etish.

7-bob. Moliyaviy hisobotlar elementlarini baholash asoslari

88. Moliyaviy hisobotlarda tan olinadigan elementlar pulda ifodalangan holda oʻlchanadi. Bu esa tegishli baholash asosini tanlashni talab etadi.

89. Baholash asosi baholanayotgan moddaning aniqlangan xususiyatidir (masalan, boshlangʻich qiymat, haqqoniy qiymat, aktivning foydalanish qiymati yoki majburiyatni bajarish qiymati). Aktiv yoki majburiyatga nisbatan baholash asosini qoʻllash mazkur aktiv yoki majburiyat, shuningdek ular bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlar qiymatini belgilaydi.

Turli aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar uchun turli baholash asoslari oʻrinli boʻlishi mumkin.

1-§. Boshlangʻich qiymat

90. Boshlangʻich qiymat boʻyicha baholash aktivlar, majburiyatlar va ular bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlarni yuzaga keltiradigan operatsiya yoki boshqa hodisa narxidan (hech boʻlmaganda qisman) kelib chiqadigan maʼlumotga asoslangan holda ushbu aktivlar, majburiyatlar va ular bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlar haqida pulda ifodalangan maʼlumotni taqdim etadi.

Boshlangʻich qiymat joriy qiymatdan farqli tarzda qiymatdagi oʻzgarishlarni aks ettirmaydi, bundan oʻzgarishlar aktivning qadrsizlanishi yoki majburiyatning zarar keltiruvchi boʻlib qolishi (“onerous liability”) bilan bogʻliq hollar mustasno.

91. Aktivni xarid qilish yoki yaratish paytidagi boshlangʻich qiymat aktivni xarid qilish yoki yaratishda amalga oshirilgan va quyidagilarni oʻz ichiga oladigan sarflarning qiymati hisoblanadi:

ushbu aktivni xarid qilish yoki yaratish maqsadida toʻlangan tovon;

operatsiyalar boʻyicha sarflar.

Majburiyat yuzaga kelgan yoki qabul qilingan paytdagi boshlangʻich qiymat majburiyatni zimmaga olish uchun olingan tovon qiymatidan operatsiya sarflari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

92. Aktivning boshlangʻich qiymati (qoʻllash mumkin boʻlgan hollarda) vaqt oʻtishi bilan quyidagilarni aks ettirish maqsadida yangilanadi:

mazkur aktiv hosil qiladigan iqtisodiy resursning toʻliq yoki qisman isteʼmol qilinishi (eskirish yoki amortizatsiya);

aktivni toʻliq yoki qisman qoplagan holda olingan toʻlovlar;

aktivning boshlangʻich qiymati toʻliq yoki qisman qoplanmaydigan boʻlishiga (qadrsizlanishiga) olib keladigan hodisalarning taʼsiri;

tegishli moliyalashtirish komponentini aks ettirish uchun aktivga nisbatan foizlar hisoblash.

93. Majburiyatning boshlangʻich qiymati (qoʻllash mumkin boʻlgan hollarda) vaqt oʻtishi bilan quyidagilarni aks ettirish maqsadida yangilanadi:

majburiyatni toʻliq yoki qisman bajarish (masalan, majburiyatni toʻliq yoki qisman soʻndiruvchi toʻlovlar amalga oshirilishi yoki tovarni yetkazib berish majburiyatining bajarilishi orqali);

majburiyatni bajarish uchun zarur iqtisodiy resurslarni oʻtkazish javobgarligi qiymatini ushbu majburiyat zarar keltiruvchi boʻlib qolishiga olib keladigan darajada oshiradigan hodisalarning taʼsiri. Agar majburiyatning boshlangʻich qiymati uni bajarish boʻyicha javobgarlikni aks ettirish uchun ortiq yetarli boʻlmay qolsa, majburiyat zarar keltiruvchi hisoblanadi;

tegishli moliyalashtirish komponentini aks ettirish uchun majburiyatga nisbatan foizlarni hisoblash.

94. Boshlangʻich qiymat boʻyicha baholash asosini moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarga nisbatan qoʻllash usullaridan biri ularni amortizatsiyalangan qiymat boʻyicha baholash hisoblanadi.

Moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning amortizatsiyalangan qiymati dastlabki tan olish paytida belgilangan stavkani qoʻllagan holda diskontlangan kelgusi pul oqimlari boʻyicha hisob bahosini aks ettiradi.

Oʻzgaruvchan foiz stavkali instrumentlar holatida diskontlash stavkasi mazkur oʻzgaruvchan stavkaning oʻzgarishini aks ettirish uchun yangilanadi.

Moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning amortizatsiyalangan qiymati vaqt oʻtishi bilan foizlarni hisoblash, moliyaviy aktivning qadrsizlanishi hamda pul mablagʻlarining kelib tushishi yoki toʻlanishi kabi keyingi oʻzgarishlarni aks ettirish uchun yangilanadi.

2-§. Joriy qiymat

95. Joriy qiymat boʻyicha baholash aktivlar, majburiyatlar va ular bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlar toʻgʻrisidagi pul ifodalangan maʼlumotni baholash sanasida mavjud shartlarni aks ettirish maqsadida yangilangan maʼlumotdan foydalangan holda taqdim etadi.

Joriy qiymat boʻyicha baholash asoslari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

haqqoniy qiymat;

aktivlar uchun foydalanish qiymati hamda majburiyatlar uchun bajarish qiymati;

oʻrnini qoplashning joriy qiymati.

96. Haqqoniy qiymat baholash sanasida bozor ishtirokchilari oʻrtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni oʻtkazish uchun toʻlanishi mumkin boʻlgan narxdir.

Haqqoniy qiymat aktiv yoki majburiyatni yuzaga keltiradigan operatsiya yoki boshqa hodisadan shakllanmasligi sababli aktivni xarid qilishdagi operatsiya boʻyicha sarflar qiymatiga oshirilmaydi hamda majburiyatni qabul qilishda amalga oshirilgan operatsiyalar boʻyicha sarflar qiymatiga kamaytirilmaydi.

97. Foydalanish qiymati – tashkilot tomonidan aktivdan foydalanish va aktivni yakuniy hisobdan chiqarish natijasida olinishi kutilayotgan pul oqimlari yoki boshqa iqtisodiy naflarning diskontlangan qiymati.

Bajarish qiymati (majburiyatni bajarish qiymati) – oʻz majburiyatini bajarish hisobiga tashkilot oʻtkazishi lozim boʻlgan pul oqimlari yoki boshqa iqtisodiy resurslarning diskontlangan qiymati.

Foydalanish qiymati va bajarish qiymati kelgusi pul oqimlariga asoslanganligi sababli aktivni xarid qilish yoki majburiyatni qabul qilishda amalga oshirilgan operatsiya boʻyicha sarflarni oʻz ichiga olmaydi.

98. Aktivning oʻrnini qoplashning joriy qiymati baholash sanasidagi ekvivalent aktivning qiymati boʻlib, mazkur sanada toʻlanishi mumkin boʻlgan tovon qiymati va ushbu sanada amalga oshirilishi mumkin boʻlgan operatsiya boʻyicha sarflarni oʻz ichiga oladi.

Majburiyatning oʻrnini qoplashning joriy qiymati baholash sanasida ekvivalent majburiyat uchun olinishi mumkin boʻlgan tovon qiymatidan mazkur sanada amalga oshirilishi mumkin boʻlgan operatsiya boʻyicha sarflar chegirib tashlangan holda aniqlanadigan qiymatdir.

8-bob. Moliyaviy hisobotlar elementlarini muayyan baholash asosini taʼminlaydigan maʼlumot

99. Baholash asosini tanlashda mazkur baholash asosidan foydalanish natijasida moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot va moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)da taqdim etiladigan maʼlumotning xususiyatini hisobga olish muhim hisoblanadi.

1-§. Boshlangʻich qiymat

100. Boshlangʻich qiymatni baholashda operatsiya narxidan va aktiv yoki majburiyatning yuzaga kelishiga olib kelgan operatsiya yoki boshqa hodisadan olingan maʼlumotdan foydalanilishi sababli ushbu aktiv yoki majburiyatni boshlangʻich qiymati boʻyicha baholash natijasida taqdim etiladigan maʼlumot moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun oʻrinli boʻlishi mumkin.

Boshlangʻich qiymat aktivning isteʼmol qilinishi va qadrsizlanishini aks ettirish uchun kamaytirilishi sababli tashkilot tomonidan boshlangʻich qiymat boʻyicha baholanadigan aktiv boʻyicha qoplash kutilayotgan summa kamida uning balans qiymatiga teng boʻladi.

Majburiyatning boshlangʻich qiymati ushbu majburiyat yuki ogʻirlashganda oshishi sababli majburiyatni bajarish uchun zarur iqtisodiy resurslarni oʻtkazish javobgarligi qiymati mazkur majburiyatning balans qiymatidan oshmaydi.

2-§. Joriy qiymat

101. Haqqoniy qiymat bozor ishtirokchilarining kelgusi pul oqimlari summalari, ushbu summalarning yuzaga kelish muddatlari hamda noaniqliklarga nisbatan joriy kutilmalarni aks ettirishi sababli aktiv yoki majburiyatni haqqoniy qiymat boʻyicha baholash natijasida taqdim etiladigan maʼlumot prognoz qiymatga ega boʻlishi mumkin.

102. Foydalanish qiymati aktivdan foydalanish va yakuniy hisobdan chiqarish natijasida yuzaga keladigan baholangan pul oqimlarining diskontlangan qiymati toʻgʻrisida maʼlumot taqdim etadi. Mazkur maʼlumot kelgusida sof pul mablagʻlari tushishi potensialini baholashda foydalanilishi mumkinligi sababli prognoz qiymatiga ega boʻlishi mumkin.

103. Bajarish qiymati muayyan majburiyatni bajarish uchun zarur baholangan pul oqimlarining joriy qiymati toʻgʻrisidagi maʼlumotni taqdim etadi.

Bajarish qiymati, ayniqsa, majburiyat boshqa tomonga oʻtkazilishi yoki kelishuv orqali hisob-kitob qilinishi oʻrniga bevosita bajariladigan hollarda prognozlash qiymatiga ega boʻlishi mumkin.

104. Foydalanish qiymati yoki bajarish qiymatining yangilangan hisob baholari kelgusi pul oqimlarining summasi, muddati va noaniqligi boʻyicha hisob baholari toʻgʻrisidagi ma’lumot bilan birgalikda ushbu qiymatlar boʻyicha oldingi hisob baholarini tasdiqlash imkonini berishi sababli foydalanish qiymati yoki bajarish qiymatining yangilangan hisob baholari tasdiqlash qiymatiga ham ega boʻlishi mumkin.

105. Oʻrnini qoplashning joriy qiymati baholash sanasida shunga oʻxshash aktivni xarid qilish yoki yaratish mumkin boʻlgan narxni yoxud shunga oʻxshash majburiyatni oʻziga olganlik uchun olinishi mumkin boʻlgan tovonni aks ettirganligi sababli oʻrnini qoplashning joriy qiymati boʻyicha baholanadigan aktivlar va majburiyatlar toʻgʻrisidagi maʼlumot oʻrinli boʻlishi mumkin.

9-bob. Baholash asosini tanlashda inobatga olish zarur boʻlgan omillar

106. Aktiv yoki majburiyat va ular bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlar uchun baholash asosini tanlashda mazkur baholash asosidan foydalanish natijasida moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda va moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot(lar)da taqdim etiladigan maʼlumotning xususiyatini, shuningdek boshqa omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

107. Baholash asosini tanlash, qoida tariqasida, bitta omil bilan aniqlanmaydi. Har bir omilning nisbiy ahamiyati aniq holatlarga bogʻliq boʻladi.

108. Baholash asosidan foydalanish natijasida taqdim etiladigan maʼlumot moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun foydali boʻlishi lozim. Mazkur maqsadda maʼlumot oʻrinli boʻlishi va oʻzi aks ettirishi lozim boʻlgan maʼlumotni haqqoniy (ishonchli) taqdim etishi lozim. Taqdim etiladigan maʼlumot imkon darajasida qiyoslanuvchan, tekshiriluvchan, oʻz vaqtida taqdim etiladigan va tushunarli boʻlishi lozim.

1-§. Oʻrinlilik

109. Aktiv yoki majburiyat hamda ular bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlarga nisbatan foydalaniladigan baholash asosi orqali taqdim etiladigan maʼlumotning oʻrinliligi quyidagilarga bogʻliq:

aktiv yoki majburiyatning xususiyatlari, shu jumladan pul oqimlarining oʻzgaruvchanligi hamda aktiv yoki majburiyatning qiymati bozor omillari yoki boshqa risklarga taʼsirchan ekanligi;

aktiv yoki majburiyat qay tarzda kelgusi pul oqimlarini keltirishi.

110. Agar aktiv yoki majburiyatning qiymati bozor omillari yoki boshqa risklarga taʼsirchan boʻlsa, uning boshlangʻich qiymati uning joriy qiymatidan ahamiyatli darajada farq qilishi mumkin.

Agar qiymatning oʻzgarishi toʻgʻrisidagi maʼlumot moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun muhim boʻlsa, boshlangʻich qiymat oʻrinli maʼlumotni taqdim etmasligi mumkin. Masalan, amortizatsiyalangan qiymat derivativlar hisoblanadigan moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyat toʻgʻrisida oʻrinli maʼlumot taqdim eta olmaydi.

111. Bevosita pul oqimlarini hosil qiladigan aktivlar va majburiyatlar uchun eng oʻrinli maʼlumotni taqdim etadigan baholash asosi kelgusi pul oqimlarining miqdori, muddatlari va noaniqligiga oid joriy baholarni oʻz ichiga oladigan joriy qiymat boʻlishi mumkin.

Bevosita pul oqimlarini yuzaga keltirmaydigan aktivlar va majburiyatlar uchun oʻrinlilik va haqqoniy (ishonchli) taqdim etish tamoyillari ular qoʻllanadigan faktlar va holatlar darajasida inobatga olinadi.

112. Agar tashkilotning iqtisodiy faoliyati shartnomada nazarda tutilgan pul oqimlarini olish maqsadida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarni boshqarishni nazarda tutsa, amortizatsiyalangan qiymat aktivlar boʻyicha olingan foizlar va majburiyatlar boʻyicha toʻlangan foizlar oʻrtasidagi farqni aniqlash uchun foydalanilishi mumkin boʻlgan oʻrinli maʼlumotni taqdim etishi mumkin.

2-§. Haqqoniy (ishonchli) taqdim etish

113. Oʻzaro bogʻliq aktivlar va majburiyatlar uchun bir xil baholash asoslaridan foydalanish ayrim hollarda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga turli baholash asoslaridan foydalangan holda taqdim etilishi mumkin boʻlgan maʼlumotga qaraganda koʻproq foydali maʼlumotni taqdim etishi mumkin.

114. Agar bahoni faol bozorda narxlarni bevosita kuzatish yoʻli bilan aniqlashning imkoni boʻlmasa hamda buning oʻrniga taxminiy hisoblanishi zarur boʻlsa, baholash noaniqligi yuzaga keladi.

Muayyan baholash asosi bilan bogʻliq baholash noaniqligining darajasi ushbu baholash asosi orqali taqdim etilgan maʼlumot tashkilotning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini haqqoniy (ishonchli) taqdim etishi yoki etmasligiga taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Baholash noaniqligining yuqori darajasi oʻrinli maʼlumotni taqdim etadigan baholash asosidan foydalanishga toʻsqinlik qilmaydi. Ayrim hollarda baholash noaniqligining darajasi ushbu baholash asosi orqali taqdim etilgan maʼlumot yetarlicha haqqoniy (ishonchli) taqdim etmasligi mumkin boʻladigan darajada yuqori boʻladi. Bunday hollarda oʻrinli maʼlumot taqdim etishi mumkin boʻlgan boshqa baholash asosini tanlash imkoniyati koʻrib chiqilishi lozim.

115. Baholash noaniqliklari natijalar boʻyicha hamda mavjudlik boʻyicha noaniqliklardan farq qiladi.

Natijalar boʻyicha noaniqliklar aktiv yoki majburiyat bilan bogʻliq iqtisodiy naflarning kirimi yoki hisobdan chiqarilish qiymati yoki muddatlariga nisbatan noaniqliklar mavjud boʻlgan hollarda yuzaga keladi.

Mavjudlik boʻyicha noaniqliklar aktiv yoki majburiyat mavjud boʻlishiga nisbatan noaniqliklar roʻy bergan hollarda yuzaga keladi.

3-§. Maʼlumotning foydaliligini oshiruvchi sifat tavsiflari

116. Baholash asosini tanlashga maʼlumotning foydaliligini oshiruvchi qiyoslanuvchanlik, tushunarlilik va tekshiriluvchanlik kabi sifat tavsiflari taʼsir koʻrsatadi. Oʻz vaqtida taqdim etish maʼlumotning foydaliligini oshiruvchi sifat tavsifi sifatida baholashga bevosita taʼsir koʻrsatmaydi.

117. Bir xil moddalarga nisbatan bir xil baholash asoslarini izchil ravishda qoʻllash hisobot beruvchi tashkilot ichida davrlar boʻyicha yoki bir davrda turli tashkilotlar oʻrtasida moliyaviy hisobotlarning qiyoslanuvchanligini oshirishga yordam beradi.

118. Baholash asosining oʻzgarishi moliyaviy hisobotlarning tushunarliligini kamaytirishi mumkin.

Agar boshqa omillar tushunarlilikning pasayishidan ustun boʻlsa hamda oʻzgarish nisbatan oʻrinliroq maʼlumot taqdim etilishiga olib kelsa, oʻzgarish oʻzini oqlashi mumkin. Bunday oʻzgarish amalga oshirilgan hollarda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga bunday oʻzgarishlar taʼsirini tushuntirish imkonini beradigan maʼlumot zarur boʻlishi mumkin.

119. Tushunarlilik foydalaniladigan turli xil baholash asoslarining soni hamda ularning vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi yoki oʻzgarmasligiga qisman bogʻliq.

Agar moliyaviy hisobotlar toʻplamida qanchalik koʻp baholash asoslaridan foydalanilsa, maʼlumot shunchalik murakkab boʻladi hamda tushunarliligi kamayadi, shuningdek moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot va moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning yakuniy yoki oraliq koʻrsatkichlari esa kamroq maʼlumotga ega boʻladi. Agar foydali maʼlumot taqdim etish uchun zarur boʻlsa, koʻproq baholash asoslaridan foydalanish mumkin.

120. Tekshiriluvchanlik bevosita (masalan, narxlarni kuzatish orqali) yoki bilvosita (masalan, modelda foydalaniladigan kiruvchi maʼlumotlarni tekshirish orqali) mustaqil ravishda tasdiqlash imkonini beruvchi baholash asoslaridan foydalanish orqali oshiriladi.

Agar bahoni tekshirishning imkoni boʻlmasa, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga mazkur baho qay tarzda aniqlanganligi boʻyicha tushuntirish maʼlumoti talab etilishi mumkin. Bunday hollarda boshqa baholash asosidan foydalanilganligini koʻrsatish zarur boʻlishi mumkin.

4-§. Xususiy kapitalni baholash

121. Xususiy kapitalning umumiy balans qiymati (xususiy kapitalning umumiy qiymati) bevosita baholanmaydi. Uning qiymati barcha tan olingan majburiyatlarning umumiy balans qiymati chegirilgan barcha tan olingan aktivlarning umumiy balans qiymatiga teng.

122. Xususiy kapitalning umumiy qiymati bevosita baholanmasligiga qaramasdan xususiy kapitalning ayrim sinflari va komponentlarining balans qiymatini bevosita baholash oʻrinli boʻlishi mumkin.

10-bob. Maʼlumotni taqdim etish va yoritib berish

123. Hisobot beruvchi tashkilot oʻz aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotni oʻzining moliyaviy hisobotlarida taqdim etadi va yoritib beradi.

124. Moliyaviy hisobotlar orqali samarali aloqa maʼlumotni yanada oʻrinli qiladi hamda tashkilotning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlarini haqqoniy (ishonchli) taqdim etishga koʻmaklashadi, shuningdek moliyaviy hisobotlarda maʼlumotning tushunarliligi va qiyosiyligi oshadi.

Moliyaviy hisobotlar orqali samarali aloqa uchun quyidagilar talab qilinadi:

eʼtiborni qoidalardan koʻra maʼlumotni taqdim etish va yoritib berish maqsadlari va tamoyillariga qaratish;

maʼlumotni oʻxshash moddalarni guruhlash va oʻzaro oʻxshash boʻlmagan moddalarni ajratishga imkon beradigan tarzda tasniflash;

keraksiz tafsilotlarni kiritish yoki ortiqcha jamlash oqibatida maʼlumotning yetarli darajada ochiqlanmasligiga (yashirilishiga) olib kelmaydigan tarzda maʼlumotni jamlash.

125. Moliyaviy hisobotlar orqali samarali aloqa quyidagi tamoyillarni inobatga olish orqali ham taʼminlanadi:

ayrim hollarda namunaga aylangan standart tavsiflardan koʻra tashkilotga xos boʻlgan maʼlumotlar foydaliroq hisoblanadi;

maʼlumotni moliyaviy hisobotlarning turli qismlarida takrorlash, qoida tariqasida, zarur hisoblanmaydi hamda bu moliyaviy hisobotlarning tushunarliligini kamaytirishi mumkin.

1-§. Tasniflash

126. Tasniflash maʼlumotni taqdim etish va yoritib berish maqsadlarida aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar moddalarini ularning umumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyan sinflarga taqsimlash jarayonidir. Bunday xususiyatlar moddaning tavsifi, tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik faoliyatidagi roli (funksiyasi), uni baholash usuli va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

127. Oʻzaro oʻxshash boʻlmagan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar yoki xarajatlarni bitta sinfga kiritish oʻrinli maʼlumotni yashirishi, maʼlumotning tushunarliligini va qiyoslanuvchanligini kamaytirishi hamda oʻzi aks ettirishi lozim boʻlgan maʼlumotni haqqoniy (ishonchli) taqdim etmasligi mumkin.

128. Tasniflash aktiv yoki majburiyat uchun tanlangan hisob birligiga nisbatan qoʻllaniladi.

Ayrim hollarda aktiv yoki majburiyatni turli xususiyatlarga ega boʻlgan komponentlarga ajratib, ularni alohida tasniflash maqsadga muvofiq boʻlishi

mumkin. Bunda, komponentlarning alohida tasniflanishi natijasida moliyaviy maʼlumotning foydaliligi oshsa, bunday yondashuv maqbul hisoblanadi.

129. Daromadlar va xarajatlar tasniflanadi hamda quyidagilarning birida yoritib beriladi:

moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning foyda yoki zarar qismida;

moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning boshqa umumlashgan daromad qismida.

130. Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning foyda yoki zarar qismi tashkilotning hisobot davridagi moliyaviy natijalari haqidagi asosiy maʼlumot manbayi hisoblanganligi sababli tashkilot, qoida tariqasida, barcha daromad va xarajatlarni ushbu qismda aks ettiradi.

Daromad va xarajatlar moddalari faqat MHMSda aniq ruxsat etilgan yoki talab etilgan holatlarda boshqa umumlashgan daromad tarkibida taqdim etiladi.

131. Agar, qoida tariqasida, bir davrda boshqa umumlashgan daromad tarkibiga kiritilgan daromadlar va xarajatlarni kelgusi davrlardan birida hisobotning foyda yoki zarar qismiga qayta tasniflash natijasida hisobotning foyda yoki zarar qismi ushbu kelgusi davr uchun korxonaning moliyaviy natijalari haqida yanada oʻrinli yoki haqqoniy (ishonchli) maʼlumot taqdim etsa, bunday qayta tasniflash amalga oshiriladi.

MHMSda boshqa umumlashgan daromad tarkibida hisobga olingan daromad va xarajatlarni keyinchalik qayta tasniflash ruxsat etilgan yoki talab qilingan holatlar belgilanishi mumkin.

2-§. Oʻzaro hisob-kitob

132. Tashkilot tomonidan aktiv va majburiyat alohida hisob birligi sifatida tan olinganda va baholanganda, shuningdek ular moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda birlashtirilgan holda yagona netto qiymatda aks ettirilganda oʻzaro hisob-kitob roʻy beradi.

Oʻzaro hisob-kitob farqli moddalarni birgalikda tasniflaganligi sababli muayyan MHMSda talab etilgan yoki ruxsat etilgan hollardan tashqari hollarda oʻrinli hisoblanmaydi.

3-§. Xususiy kapitalni tasniflash

133. Agar tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari turli xususiyatlarga ega boʻlsa, foydali maʼlumot taqdim etish uchun mazkur talab

qilish huquqlarini alohida tasniflash zarur boʻlishi mumkin.

134. Agar xususiy kapital komponentlarining ayrimlariga nisbatan qonunchilik talablari qoʻllanilsa, foydali maʼlumot taqdim etish uchun ushbu komponentlarni alohida tasniflash zarur boʻlishi mumkin.

4-§. Jamlash

135. Jamlash umumiy xususiyatlarga ega va ayni bir sinfga kiruvchi aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar yoki xarajatlar moddalarini birlashtirish jarayonidir.

136. Jamlash katta hajmdagi tafsilotlarni umumlashtirish hisobiga maʼlumotning foydaliligini oshiradi.

Jamlash jarayonida ushbu maʼlumotlarning bir qismi yetarli darajada ochiqlanmasligi (yashirilishi) ehtimoli mavjud.

Ahamiyatsiz tafsilotlarning katta hajmi yoki ortiqcha jamlash natijasida o‘rinli ma’lumot yetarli darajada ochiqlanmay (yashirinib) qolmasligi uchun jamlashda muvozanatni ta’minlash zarur.